№4
2024



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ
NÓKIS FILIALÍ

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI | ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА | BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

ILIMIY - METODIKALÍQ JURNAL

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRLIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRLIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASÍ NÓKIS FILIALÍ

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

Ilimiy-metodikalıq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI

Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА

Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART

Scientific-methodical journal

№ 4/2024

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filialı

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Dilfuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı, docent.*

REDKOLLEGIYA AǴZALARÍ:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Oliy Majlis Senatınıń jaslar, mádeniyat hám sport máseleleri komiteti baslıǵı orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD);

BEGIS TEMIRBAEV – Qaraqalpaqstan Respublikası Mádeniyat ministri, docent;

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektorı, docent;

OMONILLA RIZAEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidatı, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidatı, docent,

MUHABBAT TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktorı, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktorı, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktorı;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktorı, professor;

SAYYORA ǴAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA –kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktorı, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktorı, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktorı (DSc), professor;

ALIMA PIRNIYAZOVA –filologiya ilimleriniń doktorı (DSc);

YUSUPOV QONÍSBAY – pedagogika ilimleriniń doktorı (DSc), professor;

UTEBAEV TAJIBAY - pedagogika ilimleriniń doktorı (DSc), professor;

SEYTKASIMOV DAULETNAZAR - pedagogika ilimleriniń doktorı (DSc);

ARTÍQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent;

JAŃABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde jılına 2 márte basıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciyalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filialı Turan oypatı 29-jay.
E-mail:ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel:551020540 Veb-sayt: https://science.uzdknf.uz/

ISSN-2181-4112

MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA MILLIY MADANIYATNING AHAMIYATI

Shukurov A.

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya: Inson o‘z-o‘zini anglashi orqali qalbida milliy urf-odatlarga, an‘analarga, vatanparvarlikka, fidoiylikka, milliy o‘zlikni anglashga bo‘lgan chuqur ehtirom shakllanib o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ygan holda tinimsiz mehnat qilishi, bir millat vakili o‘laroq jamiyatga manfaat keltirishi bayon etilib, bunda milliy madaniyat va milliy o‘zlik tushunchalarining qanchalik ahamiyatli ekanligi haqida fikr yuritiladi. Milliy o‘zlik va milliy madaniyat tushunchalari ma’no jihatidan farqlanib shaxs madaniyatini shakllantirishdagi tarkibiy qismlari keltirib o‘tilgan. Bayon qilingan fikr va mulohazalar normativ hujjat misolida o‘rganilib, tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Milliy madaniyat, milliy o‘zlik, xalq, millat, tarixiylik, milliy g‘oya, ma’naviy, konsepsiya, shaxs, o‘zlik, taraqqiyot, madaniy, ijtimoiy, kommunikativ.

Аннотация: Через самосознание, глубокое уважение к национальным обычаям, традициям, патриотизм, самопожертвование в сердце человека формируется национальная идентичность, и он неустанно работает с четкой целью, констатируется, что это приносит пользу обществу. представитель нации, и обсуждается, насколько важны понятия национальной культуры и национальной идентичности. Понятия национальная идентичность и национальная культура различаются по смыслу, упоминаются компоненты формирования индивидуальной культуры. Высказанные мнения и комментарии были изучены и проанализированы на примере нормативного документа.

Ключевые слова: Национальная культура, национальная идентичность, народ, нация, историчность, национальная идея, духовная, концепция, личность, идентичность, развитие, культурная, социальная, коммуникативная.

Annotation: Through self-awareness, deep respect for national customs, traditions, patriotism, self-sacrifice, national identity is formed in a person's heart, and he works tirelessly with a clear goal in mind. it is stated that it benefits the society as a representative of the nation, and it is discussed how important the concepts of national culture and national identity are. The concepts of national identity and national culture differ in terms of meaning, and the components of the

formation of individual culture are mentioned. The stated opinions and comments were studied and analyzed on the example of a normative document.

Key words: National culture, national identity, people, nation, historicity, national idea, spiritual, concept, personality, identity, development, cultural, social, communicative.

Kirish: Milliy madaniyatni rivojlantirishning bir necha omillari bo‘lib, u har bir sohada inson o‘z-o‘zini anglashi orqali faoliyatini tizimli yo‘lga qo‘yishida samaradorlikka erishishning asosiy vositalaridan hisoblanadi. Hayotiy mezonlarni shakllantirish, rivojlantirish va to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish uchun madaniy munosabat, xulq-atvor, ma’naviy salohiyatni o‘stirish orqali milliy madaniyatni chuqur anglash hamda tadbiq etish har doimgidek dolzarb hisoblanadi. Shu boisdan har bir millat o‘z milliy madaniyatini saqlab qolish, ajdodlardan avlodlarga meros sifatida etkazish uchun tinimsiz sa’y-harakat qiladi. Milliy madaniyat nima? Uning mazmun mohiyati va tafsilotini qanday anglash mumkin?

Asosiy qism: Milliy madaniyat - bu biror xalq yoki millatning tarixiy, madaniy, ijtimoiy va ruhiy merosi, uning o‘ziga xos urf-odatlari, an'analari, tili, san’ati, adabiyoti, musiqasi, diniy va axloqiy qadriyatlari, hayot tarzi va dunyoqarashini ifodalovchi tizimdir. Milliy madaniyat xalqning o‘ziga xosligini va uni boshqa xalqlardan ajratib turadigan xususiyatlarini aks ettiradi [2: 336].

Milliy madaniyat, bir millatning identitetini saqlashda, uning tarixiy merosini kelajak avlodlarga etkazishda muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon esa milliy madaniyatning asl mohiyatini anglatib, elatlarning turli tashqi kuchlarga (Ommaviy madaniyat, shounizm, ekstrimizm) qarshi kurashishni hamda miliy g‘oyani shakllantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Milliy g‘oya bir millat ichida shakllanib uning ommaga ta’sir qilish jarayoni ya’ni mafkura hisoblanadi. Bu holat har bir insonning o‘z-o‘zini anglashi orqali millatga xizmat qilsagina, uning faoliyati tizimli shakllanib boradi. O‘z-o‘zini anglash uchun milliy o‘zlikning mohiyatini anglash zarur.

Milliy o‘zlik – bu biror millat yoki etnik guruhning o‘zini tanishi, o‘ziga xos xususiyatlarini, an’analarini va madaniyatini qadrlash va saqlash hissidir. Milliy o‘zlik, odatda, biror xalqning tarixiy tajribasi, til, din, qadriyatlar, urf-odatlar va boshqa madaniy jihatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Bu tushuncha, insonlar va jamiyatlar uchun o‘z kelib chiqishlarini anglash va o‘ziga xosligini ifodalashni anglatadi. Har bir shaxs o‘z-o‘zini anglagan holda o‘z hayotini to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirib, kamchiliklarni asta-sekinlik bilan bartaraf etib, jamiyat taraqiyotiga o‘z hissasini qo‘shishi milliy madaniyatni ota-bobolarimiz qoldirgan merosni ardoqlash orqali komillikka erishish boshqichlarini egallashi mumkin.

Bu borada Respublikamiz miqyosida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir millat vakillari o‘z millatiga manfaat keltirishi, uning xavfsizligini muhofaza qilishi, atrof-muhit va tabiatga e‘tiborli bo‘lishi bilan o‘zining madaniyatli shaxs ekanligini namoyon etishi mumkin. Barkamol avlodni madaniyatli va ma’naviyatli bo‘lib etishishlari uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror imzolandi. Ushbu qarorda uzluksiz ta’lim jarayonida ma’naviy islohotlarni chuqurlashtirish uchun konsepsiya ishlab chiqilgan [1: 448].

Konsepsiyada maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyalanuvchilari guruhli asosda 3-6, 3-7 yoshli bolalarga xos xususiyatlarni tahlil qilgan holda ma’naviy shakllantirish omillari ko‘rsatib berilgan. ta’limning ikkinchi bosqichi bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani amalga oshirsh ikki davrga: Birinchi davr – 7(6) – 10 yoshli davrda - boshlang‘ich sinflarda, ikkinchi davr – 11 -17 yoshli davrda - o‘rta va yuqori sinflarda tahsil olayotgan o‘quvchilarda ma’naviy salohiyatni o‘stirish tamoyillari ko‘rsatib berilgan. Konsepsiyaning keyingi bobida esa o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va band bo‘lmagan yoshlar o‘rtasida uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirish metodikasi ishlab chiqilib, u ikki davrni qamrab oladi:

birinchi davr - o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim bilan qamrab olinmagan, shuningdek, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan va bamd bo‘lmagan yoshlar – 17 – 30 yosh ikkinchi davr - o‘rta maxsus kasb-hunar, oliy ta’lim muassasalarining o‘quvchi-talabalari 15 – 22 (24) yosh.

Biz ushbu konsepsiyani qisman tahlil qilishimizdan maqsad milly o‘zlik barcha hayotiy jarayonni qamrab olgan holda, jamiyat taraqqiyoti uchun manfaatli bo‘lgan faoliyatlarni yo‘lga qo‘yishda asosiy vosita hisoblanadi. Jumladan u milliy madaniyat tushunchasidan kengroq qamrovga ega bo‘lib u har bir shaxs faoliyatida muhim o‘in tutib, shaxs va jamiyatning ma’naviy kamolotida fuqarolik jamiyatining moddiy-ma’naviy asoslarini mustahkamlashda ulkan ahamiyatga ega. O‘zlikni anglash tufayli inson o‘tmishini xotirlaydi, buguni bilan taqqoslaydi, xulosa chiqaradi va shu asosida kelajakka nigoh tashlaydi, ya’ni o‘zlikni anglash insonni shaxs darajasiga ko‘tarib uni ma’naviy kamolot darajasiga etaklaydigan ruhiy kuchdir. Ana shu jihatlar bevosita jamiyatning ma’naviy rivojida o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘ladi. Shaxs milliy o‘zligini anglashi tushunchasining tarkibiy qismlari quyidagilardir: millatga mansublikni, uning insoniyat taraqqiyotidagi tarixiy o‘rnini anglash, milliy g‘oya va qadriyatlarga sadoqat, millatning ehtiyojlari

va manfaatlarini anglash, uning rivojlanish yo‘llarini bilish milliy taraqqiyotga xizmat qilib fuqaroviy birlikni ta’minlashga hissa qo‘shishni yuzaga keltiradi [6:].

Milliy madaniyat esa, milliy o‘zlikning tarkibidagi tushuncha bo‘lib, u insonlar dunyo qarashi, moddiy va nomoddiy merosning uyg‘unligini anglatgan holda ularni muhofaza qilishga o‘rgatuvchi vositadir. Shaxs madaniyatini shakllantirishda milliy madaniyatning tarkibiy qismlari quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi:

1. Til — millatning kommunikatsiya vositasi, uning dunyoqarashi va tafakkurini ifodalovchi muhim omil. Inson dunyoga kelib jamiyat bilan ijtimoiylashuv jarayonida insonlar bilan muloqotga kirishida asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi.

2. Adabiyot va san’at — xalqning tarixi, tajribalari va his-tuyg‘ularini ifodalovchi asarlar. "Adabiyot" so‘zi arab tilidan kelib chiqqan bo‘lib, u "adab" (اخلاق) so‘zidan olingan. "Adab"ning ma'nosi "madaniyat", "tarbiya", "xulq-odob", "badiiy san’at" yoki "yaxshi tartib" kabi tushunchalarni anglatadi. "Adabiyot" esa badiiy va estetik jihatdan boy, til orqali ifodalanadigan she'riy, prozaik yoki dramatik asarlarning umumiy nomidir. Shuningdek, u yozma va og‘zaki ijodning barcha shakllarini, jumladan, roman, hikoya, poeziya, dramani o‘z ichiga oladi. Ushbu tushunchaning bir-biri bilan uzviy bog‘liqligini izohlash maqsadida san‘at so‘ziga ham alohida zioh berib o‘tamiz.

“San’at” so‘zi, arab tilidagi “sana’a” (صناعة) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, u “yaratish” yoki “mahorat” ma’nolarini anglatadi. San’at, asosan, badiiy va estetik qadrga ega, inson tomonidan yaratilgan ijodiy ishlardir. Bu so‘z turli san’at turlari, jumladan, musiqa, tasviriy san’at, adabiyot, teatr, raqs, kino, arxitektura va boshqalarni ifodalaydi. San’at asarlarining asosiy maqsadi estetik zavq, emotsional tajriba yoki ruhiy ko‘rish nuqtasini yaratishdir.

Bu ikki tushuncha ma‘naviyat bilan uyg‘unlashgan holda, inson kamolotini cho‘qqiga ko‘tarishda asosiy pog‘ona bo‘la oladi. Adabiyot - ijod jarayoni bo‘lib, insonlar hayotining farovon bo‘lishida ma‘naviy salohiyatini o‘stirishda xulq-atvori, odobining yuqoriligi bilan jamoatchilik o‘rtasida alohida hurmat va e‘tibor qozonib, madaniyatli inoson bo‘lib shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. San‘at esa yuqoridagi barcha jarayonlarga mohirona sayqal bergan holda insonlar ruhiyatini ko‘tarib, jamiyatda, mehnat jarayonida ijobiy natijalarga erishishda ta‘sir o‘tkazib, oilasi, mahalla, yon-atrof, do‘st-u birodarlariga e‘tiborli bo‘lib, turli kamchilik va muammolarni hal etish jarayonida chuqur tushkunlikka tushmasdan minnatdorlik va rozilik hissi bilan qarab, kichik narsalardan zavqlanish hissini uyg‘otadi [4].

3. An’analar va urf-odatlar — millatning o‘ziga xos ijtimoiy hayoti va qadriyatlar tizimi. Har bit millat ijtimoiylashuvida unga qadimdan meros bo‘lib kelgan an‘analar va urf-odatlarning o‘rni beqiyos bo‘lib, har bir shaxsning

kamolotida muhim rol oʻynaydi. Biroq bugungi kunda baʼzi bir anʻana va urf-odatlarning zamonaviy shakllari yuzaga kelayotgani bois ular asl mohiyati unutilib ketayotgani bois yoshlar maʼnaviy salohiyatining oʻsishi pasayib ketmoqda.

4. Axloq va diniy e'tiqodlar - xalqning yaxshi va yomonni ajratishdagi qarashlari va diniy e'tiqodlari. Axloq jamiyat tarafidan nazorat qilinadigan va tartibga solinadigan hulq-atvor normalari majmui boʻlib, uning davomiyligini insonlar ongiga singdirish jarayonini diniy eʻtidoqlar orqali amalga oshiriladi.

5. Ritual va bayramlar - millatning diniy yoki dunyoviy an'analari va maxsus tadbirlari. "Ritual" soʻzi turli madaniyatlarda va dinlarda oʻziga xos ma'nolarga ega boʻlib, umumiy maʼnosi - maxsus tartibda bajariladigan, odatda anʼanaviy yoki diniy ahamiyatga ega boʻlgan harakatlar yoki amallar yig'indisidir. U quyidagi yoʻnalishlardan iborat: diniy ritual, madaniy ritual, shaxsiy ritual. Quyida madaniy ritualga izoh berib oʻtamiz. Madaniy ritual – maʼlum bir jamiyat yoki xalq tomonidan bajariladigan an'anaviy amallardir (masalan, yangi yilni nishonlash, toʻy marosimlari).

Ushbu jarayonlar jamiyat taraqqiyotida aholining ijtimoiylashib faoliyat koʻrsatishini taʼminlabgina qolmay, oʻz turmush tarzida ham avlodlarga etarli darajada ibrat boʻladigan madaniy vorislik jarayonini tizimli yoʻlga qoʻyishda oʻziga xos xususiyatlarga ega. Xususiyatlar quyidagilardan iborat: oʻz-oʻzini anglab jamiyat ijtimoiy-madaniy faoliyatida komunikativ jarayonlarni shakllantiradi. Maʼnaviy salohiyatni yuksaltirish orqali madaniy tarbiyaga ega boʻlish vositasi sifatida jamiyatda shaxslarning milliy oʻzligini anglashida koʻmaklashadi. Oʻz oʻrni va mavqeyiga ega boʻlishda, hamda boshqalarga manfaat keltirishida, ibrat koʻrsatishda, turli xatoliklardan holi holda hayot kechirishga intilish kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim tamoyil hisoblanadi

Xulosa: Xulosa qilib aytish mumkinki, milliy oʻzlikni anglash orqali har bir inson oʻz maʼnaviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirib jamoatchilikka ibrat boʻlarli oila, mahalla va davlat miqiyosidagi shaxs boʻlib kamolga etishishi inkor etib boʻlmaydigan holat (aksioma) dir.

Milliy oʻzlikni anglashda milliy madaniyatning oʻrni beqiyos boʻlib, u har bir jamiyat va uning aʼzolarini mavqeini koʻtarish hamda yosh avlodlarga ibrat boʻlish, ularning hayot davomida el nazaridan tushmay, oʻz oilasi, jamiyat va davlat shuhratini namoyon etuvchi milliy madaniy merosimizni va anʼanalarimizni ajdodlarimizga etkazishda fidoyilik qiladigan shaxslarni tarbiyalashda asosiy tamoyil sifatida xizmat qiladi. Milliy oʻzlikni anglash orqali milliy madaniyarni targʻib etish jarayonini tahlil etish, monografiya, madaniyatshunoslik qoʻllanmasiga kiritish. Bugungi kunda maktabgacha taʼlim muassalarida oliy oʻquv yurtlariga qadar milliy oʻzli va milliy madaniyatni targʻib etuvchi tadbir, konferensiya, seminarlar oʻtkazilmoqda. Biroq qilingan saʼy-harakatlar natijasi biz

kuygan darajada emas. Chunki faqatgina hisobot uchun ushbu jarayonlar tashkil qilinmoqda [3: 352].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ko‘rsatib o‘tilganlarning echimi shulardan iborat:

Milliy o‘zlikni chuqur anglash va amaliyotda tatbiq etish jarayoni izchillik bilan tizimli yo‘lga qo‘yish

Madaniyatning yoshlar ma’naviyatni oshirishdagi roli uchun unga teskari tavsir qiluvchi obyektlarning asl mohiyatini ko‘rsatib berish. Tarbiya fani o‘qituvchilarini muntazam ravishta malakasini oshirish.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ijodiy-madaniy masalar bo‘yicha targ‘ibotchi lavozimini qayta tiklash yuqoridagi masalalarni hal etishning muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yangilanayotgan O‘zbekiston taraqqiyotida madaniyat va san’atning o‘rni. – T.: OLTIN MEROS PRESS. 2020. – 448 b.
2. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida madaniy islohotlarni amalga oshirishning dolzarb masalalari mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to‘plami [Matn]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2024. – 336 b.
3. Mavrulov A., Mavrulova M. Madaniyat nazariyasi [matn]: O‘quv qo‘llanma / A.Mavrulov, M.Mavrulova. – Toshkent: Donishmand ziyosi nashriyoti, 2023. – 352 b.
4. Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.
5. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2022. – 416 bet.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida 31.12.2019-yildagi 1059-son qarori https://lex.uz/ru/docs/-4676839

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1 **Раджабова С.Р.** СОВРЕМЕННОЕ ВОКАЛЬНОЕ ПРОИЗВЕДЕНИЕ: СОЕДИНЕНИЕ ТРАДИЦИИ И ИННОВАЦИИ В АЦИОНАЛЬНОМ МУЗЫКАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ…….. 3

2 **Туйчиева Р.Х.** СОНАТА ДЛЯ СКРИПКИ И ФОРТЕПИАНО ФАТТАХА НАЗАРОВА В КЛАССЕ КАМЕРНОГО АНСАМБЛЯ….. 12

3 **Muxamedjanova Z.** YOSH KOMPOZITORLAR IJODIDA KAMER-CHOLG‘U ASARLARNING IJROCHILIK TALQINI……..... 17

4 **Ражабова Н.Ф.** ЛАДЫ НАРОДНОЙ МУЗЫКИ В КУРСЕ СОЛЬФЕДЖИО…….. 26

5 **Saidxonov A.S.** IOGAN SEBASTYAN BAX OHANGLARDAN TARALAYOTGAN HAYOT…… 31

6 **Muxamedjanova Z.** B.TURSUNBOYEVNING FORTEPIANO UCHUN “SAVTI KALON SOQIYNOMASI” MAVZUSIGA VARIATSIYASI TAHLILI VA TALQIN MASALASI…….. 36

7 **Чаршемов Ж.А.** ОРКЕСТР УЧУН КОНЦЕРТ ЖАНРИ ТАРИХИ….. 44

8 **Kamalova G.M.** JAMIL CHARSHEMOVTÍŃ “POPURRI” SHÍǴARMASÍNÍŃ ÓZGESHELIGI…….. 52

9 **Allaniyazov B.Q.** «MUXAMMES» JANRÍNÍŃ TEORIYALÍQ HÁM ÁMELIY MASHQALALARÍ…… 58

10 **Мухамедзиянов К.Т.** О ВОКАЛЬНОМ ЦИКЛЕ «РУБАЯТ» НОДИРА МАХАРОВА НА СЛОВА АЛИШЕРА НАВОИ……. 64

KÓRKEM ÓNER

11 **Allanbaev R.O.** MUZÍKALÍ SHIǴARMALARDIŃ QARAQALPAQ TEATRÍNDA TUTQAN ORNÍ..... 69

12 **Djumaniyazov U.M.** XALQ CHOLG‘ULARI ORKESTRIDA RUBOB PRIMANING O‘RNI…… 76

13 **Áliev N.Ǵ.** QARAQALPAQ MUZIKA MÁDENIYATINDA DEMLI ÁSBAPLAR…… 81

14 **Kamalova G., Dauletbaeva G.** DUWTAR SAZ ÁSBABÍN ZAMANAGÓYLESTIRIWDIŃ ÁHMIYETI..... 89

15 **Karimova N.** O‘ZBEKISTONDA O‘TKAZILAYOTGAN XALQARO TIVALLARNING MADANIY ALOQALARDAGI ROLI (Xalqaro asal vali misolida)……..... 95

16 **Ризаев О.** ТЕАТР ВА ЗАМОН……. 105

17 **Shukurov A.** MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHDA MILLIY MADANIYATNING AHAMIYATI…… 111

18 **Хожаназаров Т.** ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДА ОПЕРА САНЪАТИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ…… 117
19 **Мамадалиев А.** ЎЗБЕК МАДАНИЙ МУСИҚА ИЖРОЧИЛИГИДА ХАЛҚ ЧОЛҒУЛАРИ АНСАМБЛЛАРИНИНГ ТУТГАН ЎРНИ (чангчилар ансамблида Ф.Содиқовнинг “Ҳумор” асари мисолида).. 122
20 **Назаров О.** МИЛЛИЙ ЧОЛҒУЛАРДА ЎҚИТИШ УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА МУТАХАССИСЛИК ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ АҲАМИЯТИ (Абдувоҳид Мажидов фаолияти мисолида)…… 129
21 **Юлдашева М.Б.** РОЛЬ МЕЖКУЛЬТУРНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ И КУЛЬТУРНОЙ ДИПЛОМАТИИ В ПРОДВИЖЕНИИ КУЛЬТУРЫ УЗБЕКИСТАНА…… 135

MUZÍKA PEDAGOGIKASÍ

22 **Gulmanov I.Sh.** DÁP ÁSBABÍN OQÍTÍW METODIKASÍ TARIYXÍ.. 143
23 **Iseev R.** FORTEPIANO SABAǴINDA SES GOZALLÍǴÍ ÚSTINDE ISLEW PROCESI..... 154
24 **Yusupaliyeva D.K.** YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI TARBIYASIDA MILLIY QADRIYAT: MOHIYAT VA MAZMUN.... 160
25 **Азимов Б.** ИЛМ ВА ТАЖРИБАДАГИ ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ (Васильев Феоктист Никифорович ижоди мисолида)…… 168
26 **Казакбаева М.** РОЛЬ И РАЗВИТИИ ЦИФРОВЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ…… 175
27 **Умарова В.** РАБОТА НАД ПОЛИФОНИЧЕСКИМИ ПРОИЗВЕДЕНИЯМИ В КЛАССЕ «СПЕЦИАЛЬНОЕ ФОРТЕПИАНО»……. 180

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

28 **Тлеуниязова Г.Б.** ЗАМОНАВИЙ ҚОРАҚАЛПОҚ ЛИРИКАСИНИНГ ТАРАҚҚИЁТ ТАМОЙИЛЛАРИДА ШЕЪР КОМПОЗИЦИЯСИ..... 186
29 **Бекбергенова А.У.** ПИСЬМЕННЫЙ ПАМЯТНИК «КИТАБИ ДЕДЕМ КОРКУТ» И ДАСТАН «ЕР ЗИЙУАР»..... 196
30 **Бекбергенова А.У.** ҚАРАҚАЛПАҚ ОЧЕРКЛЕРИНИҢ РАЎАЖЛАНЫЎ ТЕНДЕНЦИЯЛАРЫ (1991-2000-жыллар)……. 202

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ

Ilimiy-metodikalıq jurnal

“STATION X” baspası
Nókis-2024